



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALARDA MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Abdullayeva Surayyo Ashrafxanovna
284-DMTT logopedi, defektolog

Annotatsiya.

Mazkur maqolada autistik spektr buzilishlariga (ASB) ega bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarining shakllanmasligi muammosi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada muloqot tushunchasining mohiyati, uning kommunikativ, interaktiv va perseptiv tarkibiy qismlari yoritilib, ASB bo'lgan bolalarda ushbu komponentlarning buzilish xususiyatlari ochib berilgan. Verbal va noverbal muloqotdagi o'ziga xosliklar, ijtimoiy va vizual aloqa qiyinchiliklari tahlil qilinib, muloqotdagi asosiy muammolar aniqlangan. Shuningdek, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari, erta diagnostika, individual va guruhiiy korreksion-pedagogik ishlarning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: autistik spektr buzilishlari, muloqot ko'nikmalari, inklyuziv ta'lim, verbal va noverbal muloqot, ijtimoiy moslashuv, maxsus pedagogika, logopediya.

ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВАМИ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА

Абдуллаева Сурайё Ашрафхановна — логопед-дефектолог дошкольного образовательного учреждения № 284.

Аннотация.

В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируется проблема недостаточного развития коммуникативных навыков у детей с расстройствами аутистического спектра (РАС). В статье освещается сущность понятия коммуникации, ее коммуникативная, интерактивная и перцептивная составляющие, а также выявляются особенности нарушения этих составляющих у детей с РАС. Анализируются особенности вербальной и невербальной коммуникации, трудности в социально-визуальной коммуникации, и определяются основные проблемы в коммуникации. Также обосновываются пути развития коммуникативных навыков, ранняя диагностика, важность индивидуальной и групповой коррекционно-педагогической работы.

Ключевые слова: расстройства аутистического спектра, коммуникативные навыки, инклюзивное образование, вербальная и невербальная коммуникация, социальная адаптация, специальная педагогика, логопедия.

DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM DISORDERS

Abdullayeva Surayyo Ashrafkhanovna — Speech Therapist and Defectologist, Preschool Educational Institution No. 284.

Annotation.

This article analyzes the problem of the lack of development of communication skills in children with autism spectrum disorders (ASD) from a scientific, theoretical and practical perspective. The article highlights the essence of the concept of communication, its communicative, interactive and perceptual components, and reveals the features of the violation of these components in children with ASD. The peculiarities of verbal and nonverbal

communication, difficulties in social and visual communication are analyzed, and the main problems in communication are identified. Also, the ways of developing communication skills, early diagnosis, the importance of individual and group correctional and pedagogical work are substantiated.

Keywords: autistic spectrum disorders, communication skills, inclusive education, verbal and nonverbal communication, social adaptation, special pedagogy, speech therapy.

Kirish. So‘nggi yillarda davlat siyosatida imkoniyati cheklangan, jumladan autistik spektr buzilishlariga ega bolalarning ta‘lim olishi va jamiyatga integratsiyasi muhim ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Prezidentning 2020-yil 13-oktabrdagi № 4860-sonli qarori orqali inklyuziv ta‘limni joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari tasdiqlangan, shuningdek nogironligi bo‘lgan bolalarning umumta‘lim maktablarida ta‘lim olish imkoniyatlari kengaytirildi. [1] Autistik bolalarda muloqot ko‘nikmalarining yetarli shakllanmaganligi ularning ijtimoiy moslashuvi va ta‘lim jarayonidagi faolligini cheklaydi, shu bois bu muammo maxsus pedagogika amaliyotida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda autistik spektr buzilishlari (ASB) bolalar rivojlanishidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Autizm ijtimoiy o‘zaro ta‘sir, muloqot va xulq-atvorda namoyon bo‘ladigan murakkab rivojlanish buzilishidir. ASBga ega bolalarda muloqot ehtiyojining pastligi, nutqning yetarli rivojlanmaganligi yoki kommunikativ xohishning bo‘lmashligi ularning jamiyatga moslashuvini qiyinlashtiradi. [2]

Adabiyotlar tahlili. Autistik spektr buzilishlariga (ASB) ega bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi defektologiya, maxsus pedagogika va klinik psixologiya sohalarida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

L. Kanner autizmni ilk bor mustaqil sindrom sifatida tavsiflab, autistik bolalarning asosiy xususiyati sifatida ijtimoiy muloqotga bo‘lgan ehtiyojning pasayganligini va nutqiy aloqalarning cheklanganligini ko‘rsatib bergan. Uning tadqiqotlari ASBga ega bolalarda muloqot muammolarini tushunishda asos bo‘lib xizmat qilgan.

Keyinchalik I. Lotter, M. Rutter, shuningdek, D. Wing tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda autistik spektr buzilishlari keng doirada o‘rganilib, muloqotdagi buzilishlar verbal va nonverbal shakllarda namoyon bo‘lishi ta‘kidlangan. Mualliflar autistik bolalarda ko‘z bilan aloqa, imo-ishoralar, mimika va ijtimoiy javob reaksiyalarining sust rivojlanganligini qayd etadilar.

V.V.Lebedinskiy autistik rivojlanishni psixik rivojlanishning buzilgan turi sifatida ko‘rib chiqib, muloqot ehtiyojining shakllanmasligi bolaning umumiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi. Unga ko‘ra, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda bosqichma-bosqichlik va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega.

MDH mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlarda (T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, E.A.Strebeleva) autistik bolalar bilan korreksion-pedagogik ishlarni erta boshlash zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan. Mualliflar o‘yin faoliyati, taqlid, sensor rivojlanish va nutqni rag‘batlantirish orqali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish mumkinligini asoslab beradilar.

Xorijiy tadqiqotlarda (DSM-5, American Psychiatric Association; Baron-Cohen) ASBga ega bolalarda ijtimoiy muloqot va o‘zaro ta‘sirning buzilishi asosiy diagnostik mezonlardan biri sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, amaliy ishlarda ABA-terapiya, PECS tizimi va ijtimoiy hikoyalar orqali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning samaradorligi ta‘kidlanadi. (3)

Tahlil va natijalar. Muloqot ko‘nikmalari bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan muloqot orqali bola atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy tajriba orttiradi va ta‘lim jarayoniga jalb etiladi. Shu sababli autistik spektr buzilishlariga ega bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi maxsus pedagogika va logopediya oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Autistik spektr buzilishlariga ega bo‘lgan bolalarda muloqot ko‘nikmalarining

rivojlanmaganligini tahlil qilishdan avval, muloqot tushunchasi va uning tarkibiy qismlarini aniqlab olish muhimdir.

Muloqot – bu ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, shaxslararo munosabatlar va o‘zaro ta‘sirning alohida shaklidir. U axborot almashish, idrok etish, tushunish va baholash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Muloqot jarayonida shaxslar nafaqat so‘zlar orqali, balki harakatlar, imo-ishoralar, mimika va tana harakatlari orqali ham axborot almashadilar. Shu bois muloqot quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Kommunikativ – axborot uzatish;
- Interaktiv – o‘zaro birgalikda harakat qilish;
- Perseptiv – o‘zaro idrok etish va tushunish.

Autistik spektr buzilishlariga ega bo‘lgan bolalarda muloqot jarayoni murakkab va o‘ziga xos buzilishlar bilan kechadi. Ushbu bolalarda muloqotning kommunikativ, interaktiv va perseptiv tarkibiy qismlarining yetarli darajada shakllanmaganligi yoki qo‘pol buzilganligi kuzatiladi. Bu holat ularning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatga kirishishida sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Kommunikativ komponentning buzilishi, avvalo, axborot almashish jarayonida namoyon bo‘ladi. ASB bo‘lgan bolalarda nutqning kechikib rivojlanishi, so‘z boyligining kamligi, nutqiy faollikning pastligi yoki umuman nutqning mavjud emasligi kuzatiladi. Ayrim hollarda echolaliya, stereotip nutqiy iboralar, noodatiy intonatsiya va vokallashuvlar uchraydi. Natijada bola o‘z fikr va ehtiyojlarini atrofdagilarga to‘liq yetkaza olmaydi, bu esa muloqot jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Interaktiv komponentning buzilishi esa bolaning boshqa shaxslar bilan birgalikda faoliyat olib borish qobiliyatining yetarli rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. ASB bo‘lgan bolalar ko‘pincha ijtimoiy o‘yinlarga qo‘shilmaydi, tengdoshlar bilan hamkorlik qilishdan qochadi hamda birgalikdagi faoliyat qoidalarini tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ular navbat kutish, o‘z xatti-harakatlarini boshqalarga moslashtirish va ijtimoiy vaziyatga mos javob qaytarishda sustlik ko‘rsatadi.

Perseptiv komponentning buzilishi esa atrofdagilarni idrok etish va ularning hissiy holatini tushunishdagi qiyinchiliklarda namoyon bo‘ladi. Autistik bolalarda ko‘z bilan aloqa qilishning cheklanganligi, yuz ifodalari va imo-ishoralarni anglamaslik, emotsional holatlarni farqlashda muammolar kuzatiladi. Natijada ular muloqot jarayonida suhbatdoshning kayfiyati va munosabatini to‘g‘ri baholay olmaydi, bu esa ijtimoiy aloqalarning yanada cheklanishiga olib keladi.

Autistik spektr buzilishlariga ega bo‘lgan bolalarda noverbal va verbal muloqot vositalaridan foydalanish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu holat ularning atrofdagilar bilan samarali muloqot o‘rnatishiga sezilarli darajada to‘sqinlik qiladi. Noverbal muloqot jarayonida mimika, imo-ishoralar, yuz ifodalari va tana harakatlari orqali fikr bildirish odatdagi rivojlanishdan farq qiladi. Bunday bolalarda emotsiyalarni yuz ifodasi orqali namoyon etish cheklangan yoki mos kelmaydigan shaklda bo‘lib, ko‘pincha stereotip va ritual harakatlar ustunlik qiladi. Qo‘l silkitish, tebranish, bir xil harakatlarni takrorlash kabi holatlar muloqotdan ko‘ra ichki ehtiyojni qondirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Verbal muloqotda esa nutqiy faoliyatning yetarli darajada shakllanmaganligi yoki o‘ziga xos buzilishlari kuzatiladi. ASB bo‘lgan bolalarda noodatiy vokallashuvlar, g‘ayrioddiy tovushlar chiqarish, nutq ohangining bir xilligi yoki mantiqan mos kelmasligi qayd etiladi. Shuningdek, echolaliya — eshitilgan so‘z yoki iboralarni ma‘nosini anglamagan holda takrorlash, parafaziya holatlari ham tez-tez uchraydi. Ayrim bolalarda esa nutq umuman rivojlanmagan bo‘lib, ular muloqot ehtiyojini boshqa, ko‘pincha noverbal vositalar orqali ifodalashga harakat qiladilar.

ASB bo‘lgan bolalarda ijtimoiy muloqot jarayonida oila a‘zolarini tanimaslik, yaqinlashuvga qiziqmaslik, muloqot qoidalarini bilmaslik holatlari kuzatiladi.

Shuningdek, ko'z bilan aloqa qilmaslik, o'z ismiga javob bermaslik, og'zaki topshiriqlarni tushunmaslik kabi belgilar namoyon bo'ladi.

ASB bo'lgan bolalarning asosiy muammolaridan biri muloqot jarayonidagi qiyinchiliklar hisoblanadi. Rasmiy, norasmiy va ijtimoiy muloqot davomida xavotirlanish, ko'zga qaramaslik, shaxsiy diskomfort, autistik yopiqlik, yolg'izlik hissi, begonalashuv va muloqotdan qochish holatlari namoyon bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy-kommunikativ qiyinchiliklar sabr, kutish va empatik yaqinlik ko'nikmalarining yetishmasligi bilan izohlanadi.

Muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda bolaning nutqiy rivojlanish ontogenezi bilish va erta diagnostika o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- avval yakka tartibda, keyinchalik kichik va katta guruhlarda maxsus pedagoglar (logoped, defektolog) bilan mashg'ulotlar;
- ota-onalar uchun psixologik treninglar;
- o'yin faoliyatiga asoslangan mashg'ulotlar;
- ijtimoiy adaptatsiya darslarini bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda intensiv tashkil etish.

O'zbekistonda inkluziv ta'lim tizimi doirasida umumta'lim maktablari, maxsus maktab-internatlar va korreksion sinflar bolalarning ijtimoiy moslashuvi va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy adaptatsiya (social adaptation) faoliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Bu darslar inkluziv ta'limning bir qismi sifatida tashkil etiladi va pedagoglar, psixologlar, defektologlar tomonidan bolalarning jamoat bilan o'zaro munosabatda bo'lish, qoidalarni tushunish, ijtimoiy muomala ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida o'tkaziladi va samarali natija beradi.

Xulosa. Bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda avval muloqotni buzilish turini ajratish va yosh xususitalaridan kelib chiqib to'g'ri diagnostika olib borish va mutaxassis bilan birga ishlash samarali natija beradi. Autistik spektr buzilishlariga ega bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarining yetarli shakllanmaganligi ularning ijtimoiy moslashuvi va ta'lim jarayonidagi faolligini sezilarli darajada cheklaydi. Shu bois, muloqot buzilishining turini aniq ajratish, bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri diagnostika o'tkazish hamda mutaxassislar (logoped, defektolog, psixolog) bilan hamkorlikda tizimli korreksion ishlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Inkluziv ta'lim sharoitida tashkil etiladigan ijtimoiy adaptatsiya mashg'ulotlari ASB bo'lgan bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. М. Инклюзив таълимни жорий этиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2020 йил 13 октябрь, ПҚ-4860-сон. – Тошкент, 2020.
2. Максудова М. А. Мулоқот психологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 176 б.
3. Хамидова М. У. Махсус педагогика. – Тошкент: Фан ва технология, 2022. – 240 б.
4. Нуркелдиева Д. А. Педагогик-психологик диагностика. – Тошкент, 2019. – 192 б.
5. Лебединская К. С. Нарушения общения у детей с аутизмом. – Москва: Просвещение, 2007. – 256 с.
6. Рахмонова Ш. Х. Инклюзив таълим асослари. – Тошкент, 2021. – 184 б.
7. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги. Инклюзив таълим бўйича меъёрий-методик қўлланмалар. – Тошкент, 2020.
8. Autizm: rivojlanish bosqichlari va O'zbekistondagi bolalar orasida tarqalish ko'rsatkichlari [Elektron resurs]. – DOI: 10.5281/zenodo.16946051.
9. Social communication impairments in autism spectrum disorders [Elektron resurs]. – DOI: 10.24412/2181-2454-2022-4-533-538.